

O'ZBEKISTONDA QISHLOQ TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH

Mamadiyorov Olimjon Umarovich

TDIU "Mintaqaviy iqtisodiyot" kafedrası dotsenti

E-mail: Olimjon0476@gmail.com

Qodirov Abduvoris Abduxalil o'g'li

TDIU Turuzm va mehmondo'stlik fakulteti 1-bosqich talabasi

E-mail: abduvorisqodirov946@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 12.03.2026

Revised: 13.03.2026

Accepted: 14.03.2026

KALIT SO'ZLAR:

*qishloq turizmi,
qishloq sayohati,
infratuzilma, xizmat
sifati, Fransiya
tajribasi, turistik
xizmatlar, Germaniya
tajribasi, Italiya
tajribasi, ish o'rinlari,
turistlar.*

Ushbu maqolada O'zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, mavjud muammolar va xalqaro tajribalar asosida taklif etilgan yechimlar tahlil qilingan. Jahon amaliyoti asosida Fransiya, Germaniya hamda Italiya kabi Yevropaning davlatlarida qishloq turizmini tashkil etish tajribalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida mavjud infratuzilma, xizmat sifati va ular bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqilgan.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida turizmning ahamiyati nihoyatda katta. Jahon iqtisodiyotida turizmning ahamiyati oshib borayotgan bir davrda O'zbekistonda ham bu borada keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Turizm sohasini davlat siyosati darajasiga olib chiqilishi ushbu sohani yanada rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Turizm sayohatning o'ziga xosligi, davomiyligi, harakatlanish usullari va boshqa xususiyatlarga ko'ra madaniy-tarixiy, ziyorat, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, ishbilarmonlik, ijtimoiy, sport, tibbiy, yoshlar turizmi, agroturizm (qishloq turizmi) turlariga bo'linishi mumkin.

Adabiyotlar sharxi

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda mavjud turizmning roli va turizmning barcha turlari bilan bir qatorda qishloq turizmini rivojlantirish

Bernard Lane (1994) "What is Rural Tourism" asarida qishloq turizmining nazariy asoslarini tahlil qilib, uning turizmning alohida shakli ekanligini asoslaydi. Qishloq turizmi

qishloq hududlarining iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi, mahalliy madaniyat va an'analarni saqlashga yordam beradi hamda ekologik barqarorlik tamoyillari bilan chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.

World Tourism Organization (2017) "Tourism and Sustainable Development Goals" Hisobotda turizmning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi roli ko'rib chiqiladi. Qishloq turizmi qishloq hududlarida kambag'allikni kamaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish va madaniy merosni saqlashga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

S. Usmonov (2023) O'zbekistonda qishloq turizmining shakllanish va rivojlanishi nomli maqolasida O'zbekistonda qishloq turizmining shakllanish jarayoni va uning iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif Samarqand viloyati misolida qishloq turizmini rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

G. Sulaymonova va B. Yusupov (2025) qishloq turizmi va ekoturizmni rivojlantirish adiqotda qishloq turizmi va ekoturizm o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi. Mahalliy aholi ishtiroki, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlik muhim omillar sifatida ko'rsatilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirish jarayonini o'rganish hamda rivojlangan davlatlar tajribasini tahlil qilish orqali samarali taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilingan. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning bir qator usullari qo'llanildi. tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, tizimli yondashuv, ilmiy kuzatish, umumlashtirish va xulosalash usullari qo'llanildi.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda xalqaro darajada mavjud turizm salohiyatidan kelib chiqib, mamlakatlarning YaIM tarkibida turizmning ulushu ortib bormoqda, shu bilan bir qatorda turizm rivojlanishi tarkibida qishloq turizmini rivojlantirish ham dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda. Xalqaro turizmning rivojlanishi "...turizm daromadlilik darajasi bo'yicha uchinchi, tovar va xizmatlar eksportida to'rtinchi o'rinda, uning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi o'rtacha 10,4 foizni tashkil etmoqda..."

Butunjahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida xorijiy sayyohlarni jalb qilish bo'yicha 2019-yilga solishtirganda dunyo miqyosida Butan, Qatar, Salvador, Albaniya va Bahrayndan keyin eng yuqori o'sish qayd etilgan top-20 davlat qatoridan joy oldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'grisida"gi PF 5781-son Farmoni bilan 2019-yil 1-noyabrdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi eng yuqori turizm salohiyatiga ega bo'lgan fuqarolar yig'inlari (shahar, qishloq va ovullar) ro'yxatini shakllantirish hamda ushbu fuqarolar yig'inlari hududlarida 20 donadan kam bo'lmagan oilaviy mehmon uylari tashkil etilganda va turistlar uchun kamida besh xil xizmat turlari (shu jumladan yashash, ovqatlanish va transport) ko'rsatilgan taqdirda ularga

“Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog’i” va “Turizm ovuli” maqomini berish belgilangan. Mos ravishda Respublikamizning barcha hududlarida ayni tartibdagi subyektlar faoliyati tashkil etilmoqda. Xususan, Samarqand viloyatida bugungi kunda turizm qishloqlari soni 18 taga yetgan. Jumladan, Qo‘shrabot tumanida “Pangat” qishlog’i, Samarqand tumani “Konigil” , Urgut tumanidagi “Bahrin” va Samarqand shahri “Sharq MFY” larida turizm mahallalari tashkil etilgan.

Respublikamizda qishloq turizmini rivojlantirish va bu sohaga xorij tajribasini joriy etish quyidagi imkoniyatlarni yana yaxshilaydi:

□ Qishloq turizmi tabiat muhofazasida investitsiyalar kirishini va qishloqda xizmatlar servisini takomillashtiradi;

□ Qishloq turizmi yangi ish o‘rinlari bilan taminlashda katta imkoniyatlarni yaratadi;

□ Qishloq turizmi ekologik toza oziq-ovqat maxsulotlarini ishlab chiqarishni taminlaydi;

□ Qishloq turizmi mahalliy mahsulotlar aylanmasi va hunarmandchilikka keng yo‘l ochadi;

□ Qishloq turizmi tabiatni muhofaza qiluvchi mahalliy boshqaruvni rivojlantiradi va ma‘naviy, moddiy jihatlari bo‘yicha rivojlantiradi;

□ Qishloq turizmi dehqonchilik, bog‘dorchilik va chorvachilikni o‘rganadi, bu sohalarning mahsulotlardan manfaatdor bo‘lishini ta‘minlaydi;

Xorijda, ayniqsa Yevropa davlatlarida qishloq turizmini tashkil qilishning ancha mukammal modellari ishlab chiqilgan. Ushbu modellar deyarli o‘zaro o‘xshashliklarga ega. Xususan, quyidagi modellar hozirgi kunda Yevropa davlatlarida muvaffaqiyat bilan ishlamoqda va jahondagi ko‘plab davlatlar bu modellar asosida o‘z mamlakatlarida qishloq turizmini rivojlantirib kelmoqda.

Fransiya modeli. Fransiya jahonda qishloq turizmini rivojlantirgan birinchi mamlakat hisoblanadi. Bu yerdagi qishloqlarda turistlar uchun kichik uylar barcha sharoitlari bilan turistlar ixtiyoriga beriladi. Ular qishloq uylariga joylashib, kuniga uch mahal (to‘liq pansion) ovqatga buyurtma beradilar va bu ovqatlarning tayyorlanish jarayonida ishtirok eta oladilar.

Germaniya modeli. Germaniya davlatida qishloq turizmini “fermer” turizmi deb ham nomlashadi. Ular asosan tabiiylikka intilishadi va imkoni boricha qishloqlardagi eski uylarda yashashga intiladilar. Qishloq turizmida tashkilotchilar asosan yozgi tatil mavsumiga to‘g‘ri keladigan, ushbu xalqning milliy bayramlari bo‘lmish milliy “folklor” festivallarga moslab tur mahsulot tayyorlashadi.

Italiya modeli. Italiyada qishloq turizmi ko‘pincha “dehqon” turizmi deb ataladi va turistik dasturlar asosa uch xil mavzuda tuziladi va ishlab chiqiladi:

1. Tabiat va sog‘liq;
2. Sport;
3. An‘anaviy gastronomiya.

Italiyadagi Umbriya va Sitsiliya provinsiyalari ko'pincha "tabiat va sog'liq" yo'nalishidagi turistlarni qabul qilishadi shu bilan birga vinochilik turizmi yaxshi rivojlangan. Bunda turistlar vino tayyorlash uchun bog'bonga yordam beradi, bog'bon esa ish haqi sifatida ularga uzum beradi va uzumni achitish jarayoni, uning vinoga aylantirish jarayonini o'rgatadi. Zaytun va zaytun yog'iga qiziquvchi turistlar esa Abruppoga tashrif buyuradilar.

Xorij qishloq turizmidagi tajribalarning muhim jihati shundaki, Yevropa davlatlari qishloq turizmini rivojlantirish uchun o'zaro hamkorlikda "Qishloq turizmini rivojlantirish strategiyasi va dasturi" kabi dastur va rejalarni ishlab chiqishadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkimki, O'zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirishda Yevropa davlatlari tajribasidan o'tkan modellarni, ko'rsatib o'tilgan qishloq turizmi modellarni O'zbekistonda mavjud qishloq sharoitlarga tadbiq etish imkoniyatlarini o'rganib, O'zbekistonda ham qishloq turizmini rivojlantirishning strategiya va dasturlarini ishlab chiqish niyoatda muhim va samarali hisoblanadi. Qishloq turizmini rivojlantirish borasida maqsadli va strategik rejalar davlat miqiyosida tayyorlanishi va mintaqalarning qishloq xo'jaligiga ixtisoslashuvi xisobga olinishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bernard Lane "What is Rural Tourism" – 1994 y.
2. World Tourism Organization "Tourism and Sustainable Development Goals" - 2017 y.
3. G. Sulaymonova va B. Yusupov (2025) qishloq turizmi va ekoturizmni rivojlantirish
4. 2022-yil 30-apreldagi "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'grisida"gi PQ-232 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.
5. Usmonov S. O'zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirishda xalqaro tajribalardan foydalanish //Academic research in educational sciences. 2023.
6. Usmonov M.R. Turizm geografiyasi. O'quv qo'llanma. – Samarqand., 2020
7. The initiative <https://www.unwto.org./tourizm-villages/en/the-initiative>.